

## MUAMMOLI KREDIT NIMA?

**Raxmatov Shoxjahan Ulug'bek o'g'li**

*Bank moliya akademiyasi MBA Banking fakulteti talabasi*

Jamiyatda tovar - pul munosabatlaridan keyingi vujudga kelgan muhim ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlardan biri kredit munosabatlari hisoblanadi. Kredit, pul kabi iqtisodiy kategoriya bo'lib, pul mablag'larining samarali ishlashiga, xo'jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslarning ortiqcha vaqt va mablag' sarf qilmasdan qo'shimcha pul mablag'lariga boigan talabini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit munosabatlari iqtisodiy fanlarning barcha bo'g'inlarida bevosita yoki bilvosita alohida ijtimoiy - iqtisodiy jarayon sifatida o'rganiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda «kredit» so'zi lotincha «creditum» - ssuda, qarz so'zidan paydo bolganligi qayd etiladi. Ayrim iqtisodchi olimlar «credo», ya'ni «ishonaman» degan ma'noni anglatishini qayd etadi<sup>1</sup>. Albatta, kredit munosabatlarida ishtirok etayotgan subyektlarning bir - biriga boigan ishonchi asosiy omil hisoblanadi. Bu yerda kreditor, kreditni berishda asosiy masala kredit oluvchiga nisbatan «ishonchi» muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi uchun birgina ishonchning o'zi yetarli bolmaydi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishida ishonch bilan birgalikda shunday bir kategoriya mavjudki, bu kreditor va kredit oluvchi o'rtasida o'zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishga undaydi. Buni kreditor va qarz oluvchi nuqtayi nazardan ko'radigan bolsak, kreditomi ushbu munosabatlarni rivojlantirishiga asosiy omil bu iqtisodiy manfaatdorlik, ya'ni kredit foizi hisoblanadi. Qarz oluvchi uchun esa ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta'minlash orqali tegishli iqtisodiy manfaatdorlikka erishishdir. Bundan ko'rinib turibdiki, kredit va kredit munosabatlarini vujudga kelishi va rivojlanishida har ikkala tomonning ham iqtisodiy manfaatdorligi kuchli moliyaviy mexanizm hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy doirada, shuningdek, O'zbekiston moliya - kredit tizimida ro'y berayotgan jadal ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlar qator soha va tarmoqlarda bo'lgani singari ta'lim tizimi oldiga, xususan, darslik va o'quv qo'llanmalar tayorlashning tarkibi va mazmuniga jiddiy talablarni qo'yimoqda. Shu jihatdan, mualliflar «Pul, kredit va banklar» darsligini vaqti - vaqti bilan O'zbekistonda va xalqaro doirada ro'y berayotgan ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlardagi o'zgarishlar asosida nazariy - amaliy jihatdan boyitib borishni maqsad qilib, ushbu tezisni yozdik.

Ayni kunda bank faoliyati O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida eng tez suratlarda rivojlanayotgan tizimlardan biridir. Biroq, bu tez o'sish aktivlar sifati (shu jumladan kreditlar) hamda banklarning kredit risklarini boshqarish qobiliyatini

<sup>1</sup> Деньги, кредит, банки: Учеб. - 2 —е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколсва. -М.: ТК Велбн, изд -в о Проспект, 2008. -С. 410

xatarga qo'ymoqda va shu o'rinda tijorat banklari uchun muammoli kreditlar bilan ishlash usullarini takomillashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Odatda, xavf haqida gapirganda, mutaxassislar, birinchi navbatda, kredit xavfi, ya'ni kredit va unga hisoblangan foizlar qaytmaslik xavfini nazarda tutishadi. Ushbu xavf darajasiga mijozlar tarkibi va uni baholashga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri – mijozning kreditga layoqatliligini hisoblash usuli ta'sir ko'rsatadi.

Kredit xavfini va muammoli kreditlar sonini kamaytirish uchun mijozlarning kreditga layoqatliligini diqqat bilan baholash va risklarini boshqarishning samarali usulini tanlash kerak. Bu esa, tijorat banklarining kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlarni undirish amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi va bank tizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Muammoli kreditlarning yuzaga kelishi kredit riskining ta'siri bilan bog'liq bo'lib, natijada bank qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq qaytara olmasligi va bank bunday qarz oluvchilarga kredit berish bilan bog'liq zararlarni keltirib chiqarishi mumkinligidan xavotirda bo'ladi. Shuning uchun bank amaliyotida muammoli kreditlar ko'pincha past sifatli kreditlar deb yuritiladi. Muammoli kreditlarning bu talqini muammolarni yuzaga kelishi natijasidagi yo'qotishlarga qaratiladi. Biroq, har bir muammoli kredit ham yo'qotishlar bilan yakun topmaydi. Bankning vazifasi esa ehtimoliy yo'qotishlarning oldini olish, yoki minimallashtirishdan iboratdir.

### **XULOSA**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: - kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlanishi. Xususan, kreditor kredit hisobidan foiz to'lovlari sifatida foyda olsa, qarz oluvchi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash orqali tegishli foydani shakllantirish imkoniyatiga ega boiadi; - iqtisodiyotda vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lar ssuda kapitali sifatida jamg'arilib, tegishli maqsadlargayo'naltiriladi; - iqtisodiyotda ishlab chiqarish siklining davriyligi. Bunda ayrim tarmoqlarda vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari vujudga kelsa, boshqaiarida qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj tuglladi, ushbu jarayon kredit orqali tartibga solinadi; - ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida qo'shimcha moliyaviy resurslarga boigan ehtiyojning asosiy qismi kreditlar orqali qondiriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Славянский А.В. (2009) “Управление проблемной задолженностью банка”. Аудит и финансовый анализ. № 1. С.
2. Юсупова О.А. (2016). Организация администрирования проблемной задолженности в кредитном портфеле коммерческого банка. Финансовая аналитика: проблемы и решения, (10 (292)

**FOYDALANILGAN SAYTLAR:**

1. Тижорат банкларининг муаммоли кредитлари (NPL) тўғрисида 2020 йил 1 июнь ҳолатига маълумот - Ўзбекистон Республикаси Марказий банки (cbu.uz)

